

## TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA XALQ HUNARMANDCHILIGINI O'QITISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Tursunov Farxod Ermakbayevich**

*Andijon davlat pedagogika instituti v.b dotsent*

### ANNOTATSIYA

Maqolada Xalq hunarmandchiliga oid ishlarni o'qitishining o'ziga xos xususiyatlari Bunda mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlar maxsus jihozlangan o'quv va labaratoriya xonalarida, ustaxonalarda, o'quv-mashq maydonlarida, korxonalarda o'tkazilishi, ularni tashkil etish, o'tkazish uchun eng avvalo o'quv materiallarining mazmuni, maqsadi va sharoitlari katta ahamiyat kasb etilishi haqida uslubiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** 1. Rejalashtirish. 2. Hujjatlar. 3. Mashg'ulot ishlanmasi, didaktik tamoyillar, 4. Xalq hunarmandchiligi, 5. Naqqoshlik san'ati, 6. Yog'och o'ymakorligi, 7. Ganch o'ymakorligi

Xalq hunarmandchiliga oid ishlarni o'qitishining o'ziga xos xususiyatlari. Respublikamiz siyosatida yoshlarni o'qitish va tarbiyalash masalalari alohida o'rinni tutadi. Buni "Ta'lif to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarda, Prezidentimizning ta'lif tizimi, kadrlar tayyorlash va barkamol avlod tarbiyasini tubdan isloq qilish haqidagi nutqlarida hamda asarlarida, shuningdek, o'qitish tizimida yangi Pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash sohasida olib borilayotgan ishlarda ko'rish mumkin. Respublikamizda, jumladan, oliy ta'limda ham bir qator islohatlar olib borilmoqda. Masalan, oliy ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavriatura va mutaxassislik bo'yicha magistraturaga bo'lindi. Bunda mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlar maxsus jihozlangan o'quv va labaratoriya xonalarida, ustaxonalarda, o'quv-mashq maydonlarida o'tkaziladi.

Xalq hunarmandchilagini o'qitish o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ularni tashkil etish, o'tkazish uchun eng avvalo o'quv materiallarining mazmuni, maqsadi va sharoitlari katta ahamiyat kasb etadi. Har qanday mutaxassislik fanida ma'ruza, amaliy mashg'ulot asosan uch bosqichdan iboratdir: 1. Boshlang'ich ko'rsatmani to'g'ri berish. 2. Ma'lum bir muammoni keltirib, uni to'g'ri yechish yo'llarini yoritish. 3. Natijalarni to'g'ri tahlil etish va xulosa chiqarish.

Res'publikamizda amalga oshirilgan istiqlol tufayli yo'qolib borayotgan milliy hunarmandchilikni qayta tiklash, uni o'sib kelayotgan yosh avlodgi o'rgatish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti tomonidan 1997 yil 31 martda e'lon qilingan "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari

to'g'risida"gi

Farmonda milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy sa'natining ahamiyatini oshirish, qo'lda yuksak badiiy buyumlar yasashning asriy an' analarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandchiligini tarqqiy ettrishga davlat tomonidan aniq yordam ko'rsatish belgilab berildi.

Yog'och o'ymakorligi, sandiqchilik, chilangularlik, pichoqchilik, navvoylik, naqqoshlik, turli milliy buyumlar (do'ppi, so'zana, kirpech, joynamoz va h.), kashtalar, choklarni (yo'rma, hamdo'zi, tugin, suv, kabi usullarda) tikish uchun kerakli dastur va o'quv qo'llanmalari tuzib amaliyotga tadbiq etish hozirgi kun talabidir. Talabalarga bilim berishda avvalambor "Hunarmandchilik" so'zining asl ma'nosini izohlab berish lozim. Hunarmandchilik degani har hil mehnat qurollari yordamida xom ashyodan chiroyli buyumlar ishlab chiqaradigan kasblarning umumiyl nomini anglatadi. Xalq hunarmandchiligi kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, chilangularlik, sandiqchilik, pichoqchilik, naqqoshlik, tikuvchilik, kashtachilik, zardo'zlik, to'quvchilik, kabi turlardan iborat bo'lib, ularning sir- asrorlari asrlar davomida ota-bobolarimiz, buvi va onalarimiz tomonidan o'rgatilishi natijasida avloddan-avlodga meros bo'lib o'tib kelmoqda. Aytish mumkinki, o'g'il-qizlarimizning jamiyatda o'z o'rinalarini to'ishlarida, kelgusida malum bir kasb-hunar egalari bo'lib jamiyat manfaati uchun xizmat qilishlarida, milliy qadriyatlarimizni anglab yetishida xalq hunarmandchiligining o'rni beqiyosdir. Yoshlarni kelajak hayotga, oilaviy turmushga tayyorlash - mактаб yoshidan boshlanadi. Ular oilada mehmono'st, oilani tebratadigan, isrofga yo'l qo'ymaydigan, pokiza, pazanda bo'lism bilan birga qo'li gul chevar bichuvchi, tikuvchi, kashtachi, zardo'z, o'g'il bolalar ham biror hunar egasi bo'lib, o'zlari tanlagan kasbi bo'yicha halol non to'ish yo'lini o'ргansalar ularga hammaning havasi keladi.

Naqqoshlik san'ati. Naqqoshlik san'atining paydo bo'lish tarixi insoniyatning tarixiy taraqqiyoti va madaniyati bilan uzviy bog'liqdir. Inson madaniyatning rivojlanishi bilan rassomchilik va naqqoshlik san'ati ajralib chiqdi hamda rivojlandi. Har hil arxelogik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud bo'lgan. Masalan: Xitoy, qadimiy Eronda, Hindistonda turli naqshlarni, ularning har hil to' 'lamlarni ko'rish mumkin. Naqqoshlikni rivojlanishi va tarqalishi. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos geografik joylashuviga, o'simlik dunyosiga ko'ra rivojlangan. Masalan, arman va gurizinlarda uzum bargi, SHimol xalqlarida archa va har hil hayvonlar, qirg'iz va qozoqlarda mol shoxi, tojik va o'zbeklarda olma, anor, bodom gullari, qalam'ir va boshqalar ramziy naqshlar tariqasida ishlataladi. Islom dini naqshlarda inson tasvirini tushirishni taqiqilagan. SHu sababli qadimdan turli jonivorlar, 'arrandalar, o'simliklar va shakllarning tasviri tushirilgan naqqoshlik ishlari keng rivojlangan. Arab yozuvini o'zlashtirilishi, uni naqshlar bilan birga chizib-yozilishi ham bu sohani malum darajada rivojlanishiga

sabab bo'lgan. .Arab yozuvi ba'zan ham duo- afsunlar vazifasini ham bajargan. Xulas buni natijasida tasviriy san'atga nisbatan xalq amaliy bezak san'ati naqqoshlik xisobiga rivoj topdi. Ayniqsa, 9-10- asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. 11-12-asrlarda O'zbekiston hududida geometrik naqshlar ko'p ishlatilgan, me'morchilik keng tarqalgan. Mo'y qalam bilan devorga surtilgan qizil kesak bo'rtma shakl oladi, ustidan bo'yoq va zarhal berilgan.

Naqsh chizish jarayoni. Naqshlar buyumga, devorga chiziladi yoki qanday joyning bezatilishiga qarab o'ziga xos turli-tuman usullarda bajariladi. Bu ishlar o'ziga xos jarayonga va mazmunga ega bo'ldi. Ganchkorlik, kashtado'zlik, zardo'zlik, zargarlik, kulolchilik, chilangarlik, gilam to'qish, yog'och o'ymakorligi va shu kabi har xil ish turlari, usullari va yo'llar bilan turli ko'rinishdagi naqshlar ishlanadi. Ganch o'ymakorlida ishlatiladigan naqshlar mazmunga kora o'simliksimon, geometrik naqshlar, gulli-girih, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi. O'simliksimon naqshlar - tabiatdagi barg, band, daraxt, bo'ta, g'o'la, va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shakllarni ma lum qonuniyatlar asosida takrorlab chizish bilan hosil qilinadi.

Naqsh - forscha chigal, tugun degan ma'noni anglatadi. Handasiy naqshlar - murakkab naqsh turi - geometrik naqsh turlaridan biri bo'lib, to'rtburchak, uchburshak, aylana, yoylardan hamda ko'p burchaklardan iborat bo'ladi. Tuzilishi jihatidan to'g'ri chiziq, egri chiziq va aralash chiziqlardan tashkil to'gan girihlarga bo'linadi. Geometrik naqsh uzluksiz ra'ortlardan tashkil to'gan bo'lib, har bir ra'ort o'z tuzilishga ega bo'ladi. Bu Yevropada arabiska deb yuritiladi. Gulli girih

- o'simlik va geometrik naqsh elementlarida n tashkil to'gan. Ramziy naqshlar - kabutar, o'roq, bolg'a, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarni tasvirlangan elementlaridan tashkil to'gan bo'ladi. Ramziy - arabcha "ishora qilmoq" degan ma'noni bildiradi.

Ganchkorlik san'ati. Ganchkorlik - san'atimiz faxri, beqiyos va bebahoxazina. Hech shubhasiz uni chuqur o'rganish miliy va amaliy ahamiyatga egadir. Ganch o'ymakorligi san'ati asarlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib kelmoqda. Bu san'atning eng qadimiy, o'rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishni ko'zda kechirib, o'rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o'ymakorligi bir-biridan mutloqo farq qiladi. Qadimgi ganch o'ymakorligi xajmiy bo'lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan, ularda ko'insha odamlar, xayvonlar, qushlar tasviri ishlatilgan. Eramizning 1-asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qala'lar, karvonsaroylar va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Bo'lib o'tgan janglar oqibatida ular vayronalarga aylanib, faqat qoldiqlari saqlanib qolgan. 3- asrda tu'roqqal'aning serhasham saroy mehmonhonalar o'yma ganch bilan bezatilgan. Barcha boyliklar madaniy, arxetektura sa'naat yodgorlilari xalq mulki hisoblanadi.

Ganch o'ymakorligini me'morchilikda qo'llanishi. Har qanday binoni bezashda

avval uning tuzilishiga mos rang, o'ymakorlik turini tanlash, qo'llash o'z-o'zidan muhim ahamiyatga ega. Kichik xonaga tekis o'ymakor va unga mos tushgan pardoz turi, katta mehmonxonalarga (zallarga) esa yirik yoyma va o'ziga xos ganch o'ymakorligi qo'llaniladi. Ganch o'ymakorligi, yirik o'yma, chuqur o'yma, yassi o'yma, shizma pardoz, panjarasimon o'yma zanjiri, xajmli o'yma turlaridan iborat. Bundan tashkari, ganch o'ymakorlik turlari zaminli va zaminsiz o'ymalarga bo'linadi.

Zaminli o'yma - yirik o'yma binolarning fasadlari (tashqi tomoni) ni va katta mexmonxonalarini bezatishda qo'llaniladi. O'yma rel'efining chuqurligi 2-3 sm bo'ladi. O'yma zalning butun yuzasini 15-30 % ni egallaydi. O'yma qora fonda oppoq, faqat soyasi qop-qora yaxlit bo'lib ko'rindi. Yirik o'yma namunalari qadimdan ishlangan bo'lib, Termiz (9-10-asr), Samarqand (10-asr) shaharlaridagi obidalar misol bo'ladi. Ganchkorlikda hajmli o'yma, barel'efli haykalsimon, qubba, qosh va boshqalar ishlatiladi. Bular hajm o'ymalar deyiladi. Ularni o'yib ishlanadi. Eng ko'p qo'llanadigan o'yma yassi o'ymadir. U inter'erda ko" qo'llaniladi. Albatta katta bo'limgan xonalarda o'yma chuqurligi 1-1.5 sm bo'lib, unga har hil pardoz turlari beriladi. O'yma naqshning zmini umumiy yuzaning 30-40 % ni egallaydi. Unga joyiga moslab 'ax, shoka, lula, tabaqa pardoz beriladi. Qirma pardoz X asrlardan boshlab ishlangan. U Buxoro va Samarqand shaharlarida 17-asrda juda keng qo'llanilgan. O'yma zaminini ko'zgu tashkil qilgan ganch o'ymakorligining oynavandlik turini 19-asrda buxorolik Shirin Murodov yaratgan. U birinchi bo'lib Buxoro xoni Ahadxonning "oq uyini bezashda 1913-1914 yillarda qo'llagan. O'ymakorlikning bu turi oz mehnat qilib, yuqori samaradorlikka erishish bilan ajralib turadi. Ganch o'ymakorligi o'ymani yanada badiiy va ko'rkam bo'lishi uchun o'yma zmini rangli bo'ladi. O'yma zaminga rang berishni ikki yo'li bor: 1.Ganch suvoq ustida 2-5 mm gacha qalinlikda rangli ganch bilan tezda suvaladi va pardozlanadi. 2.Bo'rtma ( rel'yef) o'yilgandan so'ng elim bo'yoq yoki moy bo'yoq bilan zaminini mo'yqalamda bo'yab chiqiladi. O'ymani rangli bo'yoqlarda bo'yash ayniqsa 19-asrda juda keng tarqalgan. panjasimon o'yma - binolardagi tokcha va tuynuklarni pardozlashda va qandillar tayyorlashda qo'laniadi. Bunda o'ymaning boshqa turlaridan farq qilib, o'yilayotgan ganch taxtaning 2-tomonini teshib o'yib, o'ziga xos pardoz turi beriladi. Nozik va nafis ganch o'ymakorligi namunalari me'morchilik taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini kursatuvchi badiiy vositalardan biridir. Ganchdan o'yib ishlangan o'yma turlari kop bo'lib mohir o'ymakor ustalar ulardan foydalanib mo'jizalar yaratib kelganlar. Ular binolarning tashqi, ayniqsa, ichki qisimlarini nafis ganch o'ymakorligi bilan bezab, kishilarga nafosat, zavq baxsh etganlar.

Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan materanllar, asbob-uskunalar, moslamalar, tasvir hosil qilish ishlari. Qadimiy obidalarning va undagi bezaklarning umri boqiyligi shundaki, juda qadimdan ota-bobolarimiz yuqori sifatli, g'oyat chidamlı hamda davr sinovlaridan o'tgan qurilish materiallaridan keng foydalanib kelganlar. SHunday

maxalliy materialdan yog'och, ganch tu'roq va boshqalar. Bulardan foydalanish sirasrorlarini yaxshi bilganlar. SHuning uchun asrlar osha binolar o'z jilvasini yo'qotmay turibdi.

Ganch - mahalliy qurilish materiali, uning ko'rinishi sarg'ish oq bo'ladi. Tezganch - tez qotuvchi qotishma bo'lib, ganchkorlikda ravoq bog' lashda, suvoq qilishda ishlatiladi. Soxta ganch qorilgandan so'ng 30 daqiqa atrofida qotmay turadi. Xavoda - gul o'yishga mo'ljallab ma lum qadar kuchi kamaytirib qorilgan ganch. Gips -oq, rangsiz shafov, qizil qoramtil yoki qora rangdagi mineral. SHirach

- ganch o'ymakorligida va g'isht bilan terishda qadimda foydalanib kelingan. Har bir soha ustalarining o'ziga xos sabablari bor. Ganch o'ymakorligi to'g'ri, uchburchak chizmalar, pargor (sirkul), yumshoq, qattiq oddiy qalamlar, oq, ko'k o'shirk'ichlar, plastmasasa, sirli tog'ora, elak (ganch elakdir), mayin latta (ganch yuzasini saqlash uchun), qayroq tosh, 4 ta reykali ramka va boshqalar ishlatiladi.

Ganch o'yish uchun ustalar 17 tadan ortiq asbob ishlatganlar. Bularda skalpel, iskana, shuturlardan, pux qalam, ishqor, qalamtoq, morpech qalam, pilta qalam, patak binni, nova, va x.k..

O'ymakorlik san'ati. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan yog'och turlari va o'ziga xos xususiyatlari. Yog'och o'ymakorligida ota bobolarimiz qadimda har hil yog'ochlardan turli maqsadda foydalanib kelganlar. Hamma yog'ochlar ular olinadigan daraxt turiga qarab 2 guruxga bo'llinadi: a) bargli daraxtlar; b) nina bargli daraxtlar. Nina bargli daraxtlardan olingan yog'ochlar qurilishda, durodgorlikda va yog'och o'ymakorligida asosiy material hisoblanadi. CHunki uning o'ziga xos afzaliklari bor. CHunonchi uning tarkibida smolali moddalari bo'lgani uchun u tez chirib ketmaydi, bargli daraxtlarga qaraganda ko'va engil, unga ishlov berish oson, tanasi to'g'ri, silliq bo'lgani uchun undan silliq xoda tayyorlash mumkin. Lekin o'ymakorlikda shumtol, eman, arg'uvon, terak, chinor va boshqa daraxt yog'ochlari ham ishlatiladi. Yog'och, chinordan qimatbaho mebellar tayyorlanadi. Archa yog'och o'ymakorligida qadimdan qo'llanib kelingan. YOng'oq qimmatbaho mebellar tayyorlashda va yog'och o'ymakorligida ishlatiladi. U ajoyib ko'rinishga ega. Zirkdan arzon mebellar tayyorlanadi. Chunki unga tez qurt tushadi.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar:

1. Bargli daraxtlar - tog' teragi, arg'uvon, baqaterek, mirzaterak, oq va qora qayin, shumtol, zarang, chinor, nok, o'rik, yong'oq.
2. Nina bargli daraxtlar - qarag'ay, tol, archa, zirk.

Tog' teragi tez chiriydigan bo'limgani uchun undan keng foydalaniladi. Ularda asosan o'yinchoqlar, idishlar, gurgutlar yasaladi.

Oq qarag'ay - cholg'u asboblari yashashda, yog'och o'ymakorlikda va qurilishda ishlatiladi. Qarag'ay - qurilishda, kemasozlikda, mebel' ishlab chiqarishda, durodgorlikda, yog'och o'ymakorligida ishlatiladi. Arg'uvon - yog'och o'ymakorligida

uni 80-90 yilligi ishlatiladi. Tilyog'och - yog'och o'ymakorligida, qurilishda ishlatiladi. Qora qayindan chizmachilik asboblari, mebellar yasaladi. SHumtol vagonsozlikda, samalyotsozlikda, kemasozlikda qo'lilanladi. Zarang qimmatbaho mebellar ishlab chiqarishda, mashinasozlikda ishlatiladi. bajaradigan ishiga qarab iskanalarning bir qancha hillari bo'ladi. Masalan iskana, mor'ech, baliq sirti, zamin, kovza, chekma va boshqalar. YOg'och o'ymakorligida ishlatiladigan asboblarni maxsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar yoki o'zlari yasaganlar. Xozirda yog'och o'ymakorlik asboblari metalsozlik korxonalarida tayyorlanadi. Iskanalar bir tomonga qarab charxlanib o'ziga xos o'tkirlik burchagida charxlanadi. Iskanalarning dastalari pishiq yog' ochlar - qayin, qora qayin, qayrog' och, zarang, yong' oq va boshqa darxtlarda taylorlanadi.

### Foydalaniman adabiyotlar:

1. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.
2. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 120 b.
3. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
4. Sh.X.Jaloldinova va boshqalar "Kashta turlari va ularni tikishni o'rgatish" mavzusini o'qitishda qo'llaniladigan interaktiv metodlarning ahamiyati. Maqola - "Aniq fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 22-may 2024-yil-313- bet